



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 3
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



INNOVATION JAMIYAT SARI YO'L: KONSTITUTSIYADA BELGILANGAN ERKINLIKAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Rahimova Nargiza Akram qizi

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti
Inson resurslarini boshqarish yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan fikr erkinligi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, ta'lim olish huquqi va mulk daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy tamoyillarning innovatsion jamiyat shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Innovatsion rivojlanish va konstitutsiyaviy islohotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar yoritiladi hamda erkinliklarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni bo'yicha xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, innovatsiya, erkinlik, fikr erkinligi, tadbirkorlik erkinligi, iqtisodiy rivojlanish, startap ekotizimi, raqamli iqtisodiyot, yoshlar siyosati, huquqiy kafolat, intellektual kapital,

Abstract: This article analyzes the impact of constitutional principles such as freedom of expression, freedom of entrepreneurship, the right to education, and the inviolability of property on the formation of an innovative society in Uzbekistan. The paper highlights the interconnection between innovative development and constitutional reforms and presents conclusions about the role of freedoms in economic growth.

Keywords: Constitution, innovation, freedom, freedom of expression, entrepreneurial freedom, economic development, startup ecosystem, digital economy, youth policy, legal guarantees, intellectual capital, innovative society

Аннотация: В данной статье анализируется влияние конституционных принципов, таких как свобода слова, свобода предпринимательской деятельности, право на образование и неприкосновенность собственности, на формирование инновационного общества в Узбекистане. В работе раскрывается взаимосвязь между инновационным развитием и конституционными реформами, а также делаются выводы о роли свобод в экономическом росте.

Ключевые слова: Конституция, инновации, свобода, свобода слова, свобода предпринимательства, экономическое развитие, стартап-экосистема, цифровая экономика, молодежная политика, правовые гарантии, интеллектуальный капитал, инновационное общество

KIRISH. Konstitutsiya lotincha "constitutio" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "o'rnatish" degan ma'nolarni bildiradi. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o'rnatiladi;

davlat hokimiyatining tuzilishi, subyektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning 11-sessiyasida qabul qilingan va 6 bo'lim, 26 bob va 128 ta moddadan iborat bo'lgan. Shuningdek, konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat suvereniteti, jamiyatda tinchlik va totuvlik tamoyillariga rioya etish, hayotimizning barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni kafolatlaydi. Ushbu hujjat O'zbekiston davlatchiligi shakllanishining eng yangi bosqichini boshlab berdi va bugungi kunda u har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Zamonaviy globallashuv sharoitida innovatsion rivojlanish davlatlar raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi innovatsion jamiyat qurilishi uchun zarur bo'lgan erkinliklar, huquqiy kafolatlar va iqtisodiy islohotlarni mustahkamlab berdi. Fikrlash, tadbirkorlik, ta'lim va mulk daxlsizligi kabi normalar innovatsiyalar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Tadqiqotning maqsadi — Konstitutsiyada belgilangan erkinliklarning zamonaviy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida innovatsion jamiyatni shakllantirishda konstitutsiyaviy erkinliklarning o'rne bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy-tahliliy manbalar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili davomida Konstitutsiyada mustahkamlangan fikr va so'z erkinligi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, ta'lim olish huquqi va mulk daxlsizligi kabi tamoyillarning innovatsion rivojlanishga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy normativ manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi o'rganildi. Xususan, fikr va so'z erkinligi (33-modda), ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga oid normalar (67-modda), shuningdek, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va mulk daxlsizligini kafolatlovchi moddalar innovatsion jamiyat shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy huquqiy omillar sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, Lex.uz milliy qonunchilik bazasi orqali konstitutsiyaviy normalarning amaliy ijrosi, huquqiy siyosatning takomillashuvi va konstitutsiyaviy islohotlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri bo'yicha materiallar o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining innovatsion va ma'muriy islohotlarga oid farmonlari, xususan PF-269-son va PF-5630-son farmonlari davlat boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda iqtisodiy erkinliklarni kengaytirishdagi institutsional asos sifatida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining rasmiy ochiq ma'lumotlari asosida startup ekotizimi, innovatsion hududlar va yoshlarning innovatsion faolligi bilan bog'liq statistik

ko'rsatkichlar o'rganildi. Ushbu manbalar innovatsion rivojlanish va konstitutsiyaviy erkinliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

METODLAR. Ushbu tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalangan holda innovatsion rivojlanish, konstitutsiyaviy huquqlar va iqtisodiy erkinliklar bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilindi. O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi normalari boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Yoshlar faolligi, startap ekotizimi va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi normalarning iqtisodiy ahamiyati baholandi.

NATIJALAR. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon yildan yilga har tomonlama rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, startap ekotizimiga va axborot texnologiyalariga oid IT sohasiga bo'lgan e'tibor yaqin 5 yil ichida juda ham ortgan va buni aholining aksariyati, xususan, yoshlar yaxshi sezishmoqda. Har bir viloyat va hududda startap g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy tashkilotlar, o'quv markazlari soni salmoqli tarzda ko'paygan. Konstitutsiyadagi fikr erkinligi jamiyatda kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, texnologik g'oyalarning paydo bo'lishi uchun qulay muhit yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga muvofiq har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi startap ekotizimini faollashtiradi. Tadbirkorlik faoliyatining erkin olib borilishi iqtisodiyot va aholining turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chunki startaplar va biznes subyektlari erkin bo'lgan sharoitda tez o'sadi va rivojlanadi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2000-yil 25-mayda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 69-II-sonli Qonun qabul qilingan. Mulk daxlsizligi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va davlat aralashuvining cheklanishi ushbu qonun asosida hamda Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" deb nomlangan XII bobida bir qancha moddalar orqali ham amaliy tasdiqlangan. Shu va shu kabi sa'y-harakatlar natijasida, biznes va innovatsion doiradagi loyihalar rivojlanmoqda va amaliyotga tadbiq etilmoqda. Aholi orasida innovatsion salohiyatni rivojlantirish va oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Innovatsion rivojlanish agentligi tashkil etildi. Bu agentlik Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari va boshqa idoraviy normativ-huquqiy aktlari kabi me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat yuritadi. Ushbu agentlikning tashabbusi bilan Farg'ona viloyati-Oltiariq tumani, Samarqand

viloyati-Urgut tumani, Navoiy viloyati-Karmana tumani, Xorazm viloyati-Gurlan tumani, Surxondaryo viloyati- Oltinsoy tumani, Sirdaryo viloyati-Sirdaryo tumani , Namangan viloyati- Chust tumani, Jizzax viloyati- Do'stlik tumani, Qashqadaryo viloyati- Nishon tumani, Toshkent viloyati- Ohangaron tumani, Andijon viloyati –Marhamat tumani, Qoraqalpog'iston Respublikasi-Nukus tumani, Buxoro viloyati- Romitan tumanida innovatsion hududlar tashkil qilingan va bir qancha iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan loyihalar amalga oshirilmoqda va shu bilan birga mahalliy aholining bandligi ham ta'minlanmoqda.

Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Yuqorida aytib o'tilgan innovatsion hududlarda bir qancha loyihalar amalga oshirilib, muvaffaqiyatli loyihalar mahalliy aholi bandligini ta'minlashga ham o'z hissasini qo'shmoqda va yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

1-rasm. Innovatsion tumanlarda amalga oshirilgan loyihalar



Keltirilgan infografikada innovatsion tumanlardagi amalga oshirilgan loyihalar o'z aksini topgan. Xususan, Romitan tumanida Teskari osmos texnologiyasi asosida suv filtrlarini ishlab chiqarish loyihasi doirasida 25 ta bo'sh ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, 1 milliard so'm qiymatidagi mahsulot sotilgan va 110 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida "Yumshoq-Kamen" ishlab chiqarish asosida 60 ta ish o'rinlari yaratilgan va 550 million so'm miqdoridagi mahsulotlar sotilgan va umumiy hisobda 600 tonna mahsulot ishlab chiqaradi.

Ushbu faoliyatlar bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar yoki tadbirkorlikni endi boshlamoqchi bo'lganlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun Bosh qomus- Konstitutsiya davlatning qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi." Xususiy tadbirkorlik faoliyatlari, ishlab chiqarish jarayonlari ko'paygan sari raqobat ham kuchayib bormoqda. Ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish tashkilotlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi yo'nalishlarda raqobatning paydo bo'lishi ko'p hollarda mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati oshishiga, narxlarning esa raqobatbardosh bo'lishiga sabab bo'ladi. Raqobatning rivojlanishi va nazorat qilinishi muhimligi sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmoni qabul qilingan bo'lib, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tashkil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi O'zbekistonda raqobat muhitini ta'minlash, monopoliyaga qarshi kurashish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ hisoblanadi.

Qo'mitaning asosiy vazifalari:

- Tovar, moliya va raqamli bozorlarda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash.
- "Kartel" kelishuvlari, til biriktirish va insofsiz raqobat amaliyotlarini aniqlash va ularning oldini olish.
- Dominant mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning monopolistik faoliyatini cheklash.
- Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini monitoring qilish.
- Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining raqobatga ta'sirini baholash.

O'zbekistonning IT Park ma'lumotlariga ko'ra, IT-xizmatlar eksporti 2023-yilda 344 million dollarga yetgan (IT Park Uzbekistan, 2023). Eksport qilinayotgan mahsulotlar: mobil ilovalar (AQSH, Yevropa va MDH davlatlariga), Dasturiy ta'minot ishlab chiqish (outsourcing), Dizayn, 3D-modellashtirish, UI/UX, Kiberxavfsizlik xizmatlari, call-center va BPO xizmatlari. So'nggi 2-3 yilda bir nechta o'zbek kompaniyalari aqlli qurilmalar eksportini boshlagan. Masalan: "Artel" kompaniyasi televizorlar, muzlatgichlar va maishiy texnika kabi mahsulotlarini 70 dan ortiq davlatga

eksport qilmoqda. "Texnopark Toshkent" tashkilotining gaz hisoblagichlar, elektr hisoblagichlar, aqlli sensorlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Gruziya davlatlarining bozorlarida sotilmoqda. Bu ko'rsatkichlar Konstitutsiyada belgilangan erkinliklarning iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi amalga oshirilmoqda, Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyat yuritmoqda. BMTTD bilan hamkorlikda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari o'rganilmoqda.

O'zbekistonda U-enter, Startup Garage, Aloqa Venture kabi tashkilotlar yoshlar, tadbirkorlik yoki ta'limga yo'naltirilgan IT tashabbuslar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shishmoqda. Ular yoshlarga zamonaviy axborot texnologiyalari (dasturlash, dizayn, marketing) bo'yicha ko'nikmalar berib, raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar yetkazib beradi. Tadbirkorlikni rag'batlantirishadi: Startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi raqamli xizmatlar va mahsulotlar yaratilishiga turtki bo'lishadi. "Raqamli avlod"ni shakllantirishda ushbu tashkilotlar yoshlarning raqamli savodxonligini oshirib, ularni kelajakning raqamli talablariga mos avlod sifatida tarbiyalaydi. Har yili bu tashkilotlar grant loyihalar, o'quv kurslari va demo day lar tashkil qilishadi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyada mustahkamlangan erkinliklar innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining ishlab chiqish jarayonida AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiya Italiya, Ispaniya, Misr kabi davlatlarning tajribalari o'rganilgan va ularning eng ilg'or konstitutsiyaviy tajribalari atroflicha o'rganib chiqilgan. Shu bilan birga, Konstitutsiya loyihasi Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan ham o'tkazilgan. Yuqorida aytib o'tilgan davlatlarning tayyor Konstitutsiyalari shunchaki "ko'r-ko'rona ko'chirib olinmagan", balki ularning umuminsoniy va demokratik qadriyatlarini o'zida mujassam etgan eng ilg'or huquqiy normalari milliy mentalitet va o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy tajribasi hamda ma'naviy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda e'tiborga olingan.

Fikr erkinligi — ilmiy yangiliklarni, iqtisodiy erkinlik — startup va biznesni, ta'lim erkinligi esa intellektual kapitalni shakllantiradi. Ushbu erkinliklarning uyg'unlashuvi innovatsion jamiyatning shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida keltirilgan ushbu erkinliklar jamiyatning innovatsion va raqamli tarzda rivojlanishida asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, qiyosiy tahlillar O'zbekiston Konstitutsiyasining innovatsion iqtisodiyot talablariga mos ravishda modernizatsiya qilinganini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ham iqtisodiy o'sishning bosh omili

sifatida erkinliklarni ko'rsatadi. Demak, O'zbekistonning konstitutsiyaviy islohotlari global trendlar bilan uyg'unlashgan.

XULOSA. Tadqiqot shuni isbotladiki, Konstitutsiyada belgilangan erkinliklar O'zbekistonda innovatsion jamiyat shakllanishi uchun huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy asos yaratadi. Fikr, tadbirkorlik va ta'lim erkinligi kabi tamoyillar — farovon, raqobatbardosh va texnologik iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Konstitutsiyaviy islohotlar orqali yaratilgan imkoniyatlar yoshlarning faolligini oshirib, innovatsion ekotizimning shakllanishiga kuchli turtki bermoqda. Ayniqsa, Venture fondlar tomonidan e'lon qilinadigan grantlar, investitsiyalar yoshlarni harakatga undayapti va yangidan yangi g'oyalarini amalga oshirishlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlamqda. Shu bois, Konstitutsiyada belgilangan erkinliklar O'zbekistonning innovatsion taraqqiyot strategiyasida markaziy o'rinda turadi va davlatning global raqobatdagi mavqeini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 33-modda (Fikr va so'z erkinligi).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 67-modda (Ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashish va kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2000-yil 25-may, 69-II-son.
6. <https://lex.uz/mact/-2006789> – O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi rasmiy sayti: <https://innovation.gov.uz>
8. <https://innovation.gov.uz/opendata/post-1648> ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan statistik materiallar.
9. "Konstitutsiya: tushunchasi, funksiyalari va asosiy prinsiplari" <https://xs.uz/uz/post/konstitutsiya-tushunchasi-funktsiyalari-va-asosij-prinsiplari>